

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektor A.K.Shadmanov

2023 yil « 05 » oy

**ICHKI KASALLIKLAR  
MODUL DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	900 000	–	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	910 000	–	Sog‘liqni saqlash
<b>Ta‘lim yo‘nalishlari:</b>	60910600	–	Tibbiy biologik ish

**Toshkent -2023**

<b>Modul kodi</b> IK15-605	<b>O'quv yili</b> 2023/2024	<b>Semestr</b> 5-6	<b>Kreditlar</b> 5	
<b>Modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2/3	
<b>1.</b>	<b>Modul nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlar (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Ichki kasalliklar	75	75	150
<b>2.</b>	<p><b>I. Modulning mazmuni</b></p> <p>Ichki kasalliklar – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenez, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko'rsatmalar yordamida tashxis qo'yish, oqibati, asorati, oldini olish choralari, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko'rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o'tkazish, ishga layoqatligini bilish, davolash asoslarini o'rgatadigan modul bo'lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.</p> <p>Ushbu modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu modul dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan amaliy ko'nikmalarni bajarishga o'rgatib, orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.</p> <p>Modulni o'qitish uchun gistologiya, odam anatomiyasi, ichki kasalliklar modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Ichki kasalliklar moduli keyinchalik boshqa klinik modullar uchun nazariy zamin bo'lib xizmat ko'rsatadi.</p>			
	<p><b>Modulni o'qitishdan maqsad</b> – ichki kasalliklarning turli variantlarida, shuningdek, ba'zi keng tarqalgan kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarning tipik kechishida klinik tashxis qo'yish va uni asoslashni, ular asoratlarini oldini olish va standartlar asosida davolash ko'nikmasini shakllantirish.</p> <p><b>Modulning vazifasi</b> – ichki kasalliklarning etiologiya, patogenez, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari, kechishi, oqibati, davolash va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish; bemorlarni anamnez yig'ish, turli tizimlar bo'yicha, klinik tekshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish; kasalliklarning asosiy diagnostik mezonlarini aniqlay olishni o'rgatish; taxminiy, klinik diagnozlarni asoslashni o'rgatish; bemorlarni tekshirish rejasini tuzish, shifokor taktikasi va davolashni o'rgatish; laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini interpretatsiya qilishni o'rgatish; qiyosiy taqqoslash va yakuniy diagnozni asoslay bilishni o'rgatish; ichki kasalliklarning turlicha variantlari bo'yicha kechishida</p>			

davolashni tavsiya eta olish va shoshilinch holatlarda tezkor yordam berishni o'rgatish.

## **II. Asosiy nazariy qism**

### **II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **Ichki kasalliklar:**

#### **5-semestr:**

**1-mavzu. Pnevmoniyalar** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**2-mavzu. Miokard infarkti** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

#### **6-semestr:**

**1-mavzu. Me'da va 12 barmoq ichak yara kasalligi** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**2-mavzu. Jigar tsirrozi** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**3-mavzu. Surunkali pielonefrit va glomerulonefritlar** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**4-mavzu. Revmatoid artrit** (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

#### **Ichki kasalliklar:**

#### **5-semestr:**

**1-mavzu:** Kirish. Ichki tibbiyotning rivojlanish tarixi. Ichki kasalliklar propedeutikasi fanining ta'rifi. Maqsadi va vazifalari Semiotika, simptomatologiya va tashhis haqida tushuncha. Shifokorlik deontologiyasi. Bemorlarni klinik tekshirish usullari: so'rab-so'rishtirish. Shikoyati. Hozirgi kasallik tarixi. Hayot tarixi. Bemorlarni tekshirishning fizik usullari: ko'rik, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya

**2-mavzu:** Nafas a'zolari kasalliklari bilan bemorlarni tekshirish. So'rab-so'rishtirish. Ko'zdan kechirish. Ko'krak qafasini palpatsiyasi va perkussiyasi. O'pka auskultatsiyasi: asosiy va qo'shimcha nafas shovqinlari. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash.

**3-mavzu:** Yurak qon-tomir kasalligi bilan bemorlarni tekshirish usullari. So'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish. Yurak soxasini va periferik tomirlarni ko'zdan kechirish. Yurak palpatsiyasi va perkussiyasi. Yurak auskultatsiyasi. Tonlarning hosil bo'lish mexanizmi. Sog'lom odamda tonlar va yurak qon-tomir kasalliklarida tonlarning o'zgarishi. Yurak shovqinlari. Shovqinlarning hosil bo'lish mexanizmi. Organik va funksional shovqinlar. Laborator va asbob-

uskunalar yordamida tashxislash.

**4-mavzu:** Xazm qilish a'zolari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. So'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish. Qorin palpatsiyasi.

**5-mavzu:** Jigar va o't yo'llari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. So'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish. Jigar palpatsiyasi va perkussiyasi. Jigar kasalliklarida asosiy klinik sindromlar: sariqlik, portal gipertenziya, jigar yetishlovchiligi.

**6-mavzu:** Buyrak va peshob ajratish tizimi bilan kasallangan bemorlarni tekshirish. So'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish. Buyrak palpatsiyasi va perkussiyasi. Buyrak kasalliklaridagi asosiy klinik sindromlar: siydik, nefrotik, gematurik.

**7-mavzu:** Bronxitlar: o'tkir va surunkali (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**8-mavzu:** Pnevmoniyalar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**9-mavzu:** O'tkir revmatik isitma (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**10-mavzu:** Mitral qopqog'i yetishmovchiligi va mitral stenoz (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**11-mavzu:** Aorta qopqog'i yetishmovchiligi, aorta og'zi stenoz (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**12-mavzu:** Gipertoniya kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**13-mavzu:** YuIK tashxisi. Stenokardiya (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**14-mavzu:** Miokard infarkti (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**15-mavzu:** Surunkali gastritlar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

#### **6-semestr:**

**16-mavzu:** Me'da va 12 barmoq ichak yara kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**17-mavzu:** Surunkali gepatitlar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**18-mavzu:** Jigar tsirrozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**19-mavzu:** Surunkali pielonefrit (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**20-mavzu:** Glomerulonefritlar (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**21-mavzu:** Revmatoid artrit (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

**22-mavzu:** Tizimli qizil bo'richa (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv

uslublari, kechishi, davolash).

**23-mavzu:** Podagra (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

**Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

**IV. Amaliy ko'nikmalar:**

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Ko'krak qafasi palpatsiyasi;
2. O'pkaning taqqoslama perkussiyasi;
3. O'pka auskultatsiyasi;
4. Yurak sohasi palpatsiyasi
5. Yurak perkussiyasi (nisbiy bo'g'iq chegaralari);
6. Yurak auskultatsiyasi;
7. Arterial qon bosimni o'lchash;
8. Pulsni tekshirish;
9. EKG- olish usullari;
10. Qorin bo'shlig'ining yuzaki palpatsiyasi;
11. Jigar palpatsiyasi;
12. Kurlov bo'yicha jigar perkussiyasi;
13. Arterial qon bosimni o'lchash;
14. O'tkir miokard infarktida og'riqda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

### 5-semestr:

1. Bemorlarning tibbiy hujjati: kasallik tarixi yuritilishi.
2. Nafas olish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator-instrumental tekshiruv uslublari.
3. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy instrumental tekshirish usullari.
4. Xazm tizimini instrumental tekshirish usullari: rentgenologik, ezofagogastroduodenoskopik, kolonoskopik, rektoromanoskopik usullarni interpretatsiyasi.
5. Xoletsistografiya, jigarni skanirlash. Jigar va o't qopi UTT, kompyuterli tomografiya interpretatsiyasi.
6. Peshob ajratish tizimini zamonaviy instrumental tekshirish usullari.
7. Nafas a'zolari kasalliklaridagi balg'am va plevra suyuqligini laborator tekshiruv natijalarini interpretatsiyasi.
8. O'pkaning yiringli kasalliklari (o'pka absessi, gangrenasi)
9. Infeksion endokardit
10. Mitral klapan prolapsi
3. 11. Simptomatik arterial gipertenziyalar
12. Uch tabaqali klapan yetishmovchiligi
13. Koronarografiya
14. Miokard infarktida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari
15. Gastroezofageal refluks kasalligi

### 6-semestr:

16. Me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligi asoratlari
17. Surunkali xolesistit
18. Jigar sirrozini tashxislashda fibroskan (elastometriya) instrumental tekshiruv usulining ahamiyati
19. Buyrak polikistozi
20. Nefrotik sindrom
21. Bexterev kasalligi
22. Tizimli sklerodermiya
23. Osteoporoz. Osteoartroz

### Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

modul bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Modul bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash va uni taqdim etish;
- modulning (modulning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish, modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish.

**VI. Ta'lim natijalari/ kasbiy kompetensiyalar**

**5-semester yakunida:**

**Talaba bilishi kerak:**

- 4.
- ichki kasalliklarda bemorlarni parvarishlash; asosiy tibbiy xujjatlarni bilish; EKG yuklamali sinama bilan; EKG-monitoring;
  - Exokardiografiya, dopplerografiya bilan;
  - Rentgenografiya, kompyuter tomografiya, yadro-magnit rezonans tomografiya, angiografiya va yurak kateterizatsiyasi;

- balg'amni bakteriologik ekish;
- Plevra bo'shlig'ini punktsiyasi; Bronxografiya; Spirografiya;
- Broxoskopiya; najasni bakteriologik ekish; najasni disbakteriozga tekshirish;
- Oshqozon shirasi va duodenal suyuqlik tarkibini tekshirish;
- Punktsiya (bo'shliqlar va bo'g'im oralig'i);
- eng ko'p tarqalgan ichki a'zolar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezini, klinikasi, asoratlari, davolash usullari;
- tekshiruv va kompleks davo rejasini tuzish
- gepatitning markerlarini aniqlash; UTT; EGDFS;
- Kolonoskopiya; Biopsiya **haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**
- immunologik tekshiruvlar, RF, SIK;
- peshob bakteriologik ekmasi va antibiotikogramma to'g'risida
- ichki kasalliklarning ichki a'zolar kasalliklarini tekshirishni
- EKG olish va o'qishni bilish; pikfloumetriya qilish;
- mos parxez va davolash rejasini buyurish; ichki a'zolar kasalliklariga dastlabki va klinik tashxis qo'ya **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).**
- bemorni professional so'roq va ko'rikdan o'tkazish;
- tibbiy xujjatlar bilan ishlash;
- hayot uchun xavfli bo'lgan holatlarda shoshilinch terapevtik yordam ko'rsatish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka).**

#### **Semestr yakunida:**

#### **Talaba bilishi kerak:**

- eng ko'p tarqalgan revmatologik, gastroenterologik, nefrologik, kasalliklarining etiologiyasi,
- patogenezini, klassifikatsiyasi klinikasi, asoratlarini bilish,
- qiyosiy taqqoslash, kasallikka tashxis qo'yish,
- tekshiruv va kompleks davolash rejasini tuzish;
- artroskopiya, teri-mushak loskuti biopsiyasi,
- me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruvi,
- umumiy va ekskretor urografiya,
- buyrak arteriyalari angiografiyasi qorin bo'shlig'i punktsiyasi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**
- bemorlardan anamnestik ma'lumotlarni yig'a bilish (kasallik va hayot anamnezi),
- fizikal tekshiruv usullariga asoslangan holda bemorlarni organlar bo'yicha



	<p>umumiy ko‘rikdan o‘tkazish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• taxminiy tashxisni shakllantirish va asoslash, bemorni tekshirish rejasini tuzish;</li> <li>• umumiy klinik laborator tekshiruvlar natijalarini: umumiy qon va siydik tahlili, qonning bioximik tahlili, oshqozon shirasini tekshirish,</li> <li>• timol va sulema sinamalari,</li> <li>• Zimniskiy va Nechiporenko sinamalarini koprogramma, axlatning bakteriologik ekma natijalarini interpretatsiya qila olish;</li> <li>• klinik va yakuniy tashxis qo‘yish va asoslash,</li> <li>• rejali davolashni tavsiya etishni, kasallik asoratlari va ularning oldini olishni <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma).</i></b></li> <li>• revmatologik, gastroenterologik, nefrologik kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni tekshirish;</li> <li>• bemorni professional so‘roq va ko‘rikdan o‘tkazish;</li> <li>• qonning umumiy, bioximik immunologik,</li> <li>• serologik tahlili, sinovial suyuqlik tahlili natijalarini interpretatsiya qilish,</li> <li>• me‘da-ichak traktini endoskopik tekshiruvi, bariyli rentgenografiya, umumiy va ekskretor uroografiya,</li> <li>• ichki a‘zolar UTT tekshiruvi natijalari asosida xulosa qilish;</li> <li>• kasallik tarixini to‘g‘ri yuritish <b><i>kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak. (malaka).</i></b></li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Interfaol o‘yinlar;</li> <li>• Seminar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni kiritish;</li> <li>• Individual loyihalar;</li> <li>• Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha muvoffaqiyatli topshirish.</p>

### **Asosiy adabiyotlar**


1. Gadayev A.G., Nabiyeva D.A., Aripov A.N. Ichki kasalliklar, Darslik. Toshkent. 2021 y.
2. Gadayev A.G., Karimov M.SH., Axmedov X.,S. Ichki kasalliklar propedevtikasi, Darslik. Toshkent. 2018 y.
3. Nabiyeva D.A., Muhammadiyeva S.M. Biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021 y.
4. Axmedova N.A., Sultonova M.X. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari kasalliklari, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019 y.
5. Гордиенко А.В. Госпитальная терапия, Учебник. Санкт-Петербург. 2016 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. Toshkent. 2012 y.
2. Мухин Н.А., Моисеев В.И. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие. Москва. 2012 г.
3. Гребенев А.Л. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие. Москва. 2011 г.
4. Рябов С.И. Внутренние болезни. 1-2- т. Учебное пособие. Санкт-Петербург. 2015г.
7. 5. Мурашко В.В. Общий уход за больными. Учебное пособие. Москва. 1988 г.
6. Гребенев А.Л., Щептулин А.А. Основы общего ухода за больными. Москва. 1991 г.
7. Окорочков А.Н., Диагностика и лечение болезней внутренних органов. Учебное пособие. Москва. 2009 г.
8. Струтынский А.В., Баранов А.П., Ройтберг Г.Е., Гапоненков Ю.П. Основы Семиотики внутренних органов. Учебное пособие. Москва. 2013 г.
9. Скотт Стерн, Адам Сайфу, Дайн Олторн. От симптома к диагнозу. Руководство для врачей (Перевод с английского). Москва. 2008г.

### **Internet saytlari:**

1. [www.medlook.ru](http://www.medlook.ru)
2. [www.medbok.ru](http://www.medbok.ru)
3. [www.medicum.ru](http://www.medicum.ru)
4. [www.medtext.ru](http://www.medtext.ru)
5. [www.medkniga.ru](http://www.medkniga.ru)
6. [www.cardioline.ru](http://www.cardioline.ru)
7. [www: http://buks.ru/book](http://www.buks.ru/book); [http:// asp 2013. ru/medicine/01/medicine 100645](http://asp.2013.ru/medicine/01/medicine_100645);

	<p>8. <a href="http://medprom.ru/">http:// medprom.ru/ medprom</a>; <a href="http://">http://</a></p> <p>9. <a href="http://www.docs.pp.ru">www.docs.pp.ru</a></p> <p>10. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a>;</p> <p>11. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>;</p> <p>12. <a href="http://www.cardiosite.ru">www. cardiosite.ru</a>;</p> <p>13. <a href="http://www.cardiologia.ru">www. cardiologia.ru</a>;</p> <p>14. <a href="http://www.bilim.uz">www.bilim.uz</a>;</p> <p>15. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a>;</p> <p>16. <a href="http://www.mf.uz">www.mf.uz</a>.</p>
8.	<p><b>Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p> <p>Modulning o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023 yil "25" 04 dagi 01335 -sonli buyrug'i (buyruqning 2 -ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  F.X.Azizova</p>
9.	<p><b>Modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>Jabbarov O.O.</b> – TTA 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedراسi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent.</p> <p><b>Tursunova L.D.</b> - TTA 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedراسi dotsenti, PhD.</p>
10.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Ichki taqrizchi:</b></p> <p><b>Agzamova G.S.</b> - TTA, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedراسi dotsenti, t.f.d.</p> <p><b>Tashqi taqrizchi:</b></p> <p><b>Kenjayev M.L.</b> – Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan somatika shifoxonasi katta ilmiy xodimi, t.f.d.</p>